

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA SO'Z TARTIBI FARQLARINING TARJIMA JARAYONIGA TA'SIRI

Mamasoatova Ruxshona Davron qizi,

2501-guruh talabasi

Tarjimonlik fakulteti, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

E-mail: rukhshonaofficial@gmail.com, tel: +998900232191

Annotatsiya. Mazkur thesis o'zbek va ingliz tillarida so'z tartibi farqlarining tarjima jarayoniga qay tarzda ta'sir qilishini tahlil qiladi. Har ikki tildagi so'zlarning grammatik va semantik ahamiyatini va tarjima jarayonida ekvivalentlikning muhimligi va gap tuzilishiga ta'siri ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: so'z tartibi, qat'iy va erkin tuzilish, shakl va mazmun, ekvivalentlik, tarjima jarayoni.

Anotation: this thesis analyzes how differences in word order in Uzbek and English influence the translation process. The grammatical and semantic significance of word order in both languages, as well as the importance of equivalence and its impact on sentence structure during translation, are examined.

Keywords: word order, fixed and free structure, form and meaning, equivalence, translation process.

Аннотация: данная работа анализирует то, каким образом различия в порядке слов в узбекском и английском языках влияют на процесс перевода. Рассматриваются грамматическое и семантическое значение порядка слов в обоих языках, а также важность эквивалентности и её влияние на структуру предложения в процессе перевода.

Ключевые слова: порядок слов, фиксированная и свободная структура, форма и содержание, эквивалентность, процесс перевода.

Kirish

XXI asrda globallashuv jarayonining jadallashuvi, madaniyatlar va davlatlararo aloqalarning kuchayishi va turli tillarda yaratilgan ilmiy va ommabop materiallarning almashinuvi tarjima faoliyatiga bo'lgan ehtiyojni yanada oshirmoqda. Turli sohalarda – diplomatiya, ta'lim, texnologiya, adabiyot va xalqaro munosabatlarda – aniq va sifatli tarjima talabining ortishi taejimashunoslikning ahamiyatini yanada oshirmoqda. Ushbu tadqiqotning dolzarbligi shundaki, ingliz va o'zbek tillari sintaksisi o'rtasidagi tafovutlarni chuqur o'rganish orqali tarjimada yuqori darjada ekvivalentlikni ta'minlash bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishi mumkin. Bugungi kunda tarjimashunoslikda grammatik transformatsiyalar, sintaktik moslashtirish va mazmun ekvivalentligi masalalari eng muhim yo'nalishlardan biri bo'lib qolmoqda.

Asosiy qism

Shu bois, birinchidan har bir tilda so'z tartibi gap tuzilishi va ma'nosini belgilovchi asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Tarjima jarayonida so'z tartibi farqlari alohida ahamiyat kasb etadi. Ingliz va o'zbek tillari esa so'z tartibi bo'yicha bir biridan keskin farq qiladi. Ingliz va o'zbek tillari orasidagi sintaktik farqlar va so'z tartibi muammosi tarjimashunoslikda muhim o'rin egallaydi. Ingliz tilida so'z tartibi analitik xususiyatga ega bo'lib, u qat'iy **S-V-O** (ega-kesim-to'ldiruvchi) tartibda quriladi. O'zbek tili esa agglutinatив, erkin xususiyatga ega bo'lib, ko'p holatlarda **S-O-V** (ega-to'ldiruvchi-kesim) tuzilishidan foydalaniladi. Bu farqlar grammatik o'zgarishlarni va mazmunni moslashtirishni talab qiladi.

Shu nuqtai nazardan, o'zbek tilidagi bu erkinlik ba'zi hollarda ifoda boyligini oshiradi va gapni turli usullarda shakllantirish imkoniyatini yaratadi.

Men maktabga bordim (urg'u menda)

Maktabga men bordim (urg'u maktabda)

Shuningdek, o'zbek tilida so'z tartibi orqali gapdagi urg'u yoki ma'no salbiy ko'rinishda o'zgarmasdan ham farq qiladi. Bu xususiyat gapning tuzilishi va ifoda shaklini rang-barang qiladi, ammo grammatik tuzilmani saqlab qoladi.

Lekin ingliz tilida bu tartib o'zgarishi bilan gapning ma'nosi ham sezilarli darjada o'zgaradi. Masalan:

I read the book (Men kitobni o'qidim)

The book reads me (Kitob meni o'qidi)

Ingliz tilida qat'iy so'z tartibi mavjud bo'lishi sababli, so'zlarning o'rnini o'zgartirish gapdagi ma'nono butunlay boshqacha qiladi yoki grammatik xatoga olib keladi. Aynisa, ob'yekt va subyektning joylashuvi qat'iy belgilangan bo'lib, ularni o'zgartirish tushunarsiz yoki xato gaplarni keltirib chiqaradi [2, 393 b.].

Bundan tashqari, tarjima jarayonida shakl va mazmun uyg'unligi uchun ikki tilda ham grammatik, leksik-semantik va funksional ekvivalentlikni ta'minlash alohida ahamiyatga ega. Misol uchun, ekvivalentlikning birinchi turida tarjimalarning asliyatga uyg'unligiga ko'z ilg'amas darajada namoyon bo'ladi. Mazkur tarjima turida asliyat va tarjima o'rtasidagi munosabatlar asosan ushbu ko'rinishlarga ega bo'ladi:

- a) Leksik tartib va sintaktik qurilishdagi nomuvofiqlik;
- b) Ikki holatda ham bir xil fikr bayon etilayotganligiga qaramasdan, asliyat va tarjimada ifoda etilgan axborot o'rtasida bevosita mazmuniy yoki mantiqiy bog'lanishning ko'zga tashlanmasligi;
- c) Asliyat va tarjima matnlari mazmunlari orasidagi umumiylik darajasi ekvivalent sifatida tan olingan boshqa tarjimalarga nisbatan nihoyatda past.

Shunday qilib, ekvivalentlikning ushbu turida asliyatdagiga nisbatan tarjimada go'yo mutlaqo boshqa narsa haqida gapirilayotgandek tuyiladi. Ushbu tarjima turiga ekvivalent sifatida tan olingan quyidagi jumla tarjimasini misol tariqasida keltirish mumkin:

She turned her nose in the air- Qiz yigitga nafrat ko'zi bilan qarab qo'ydi. Bunday tarjimalar odatda birlamchi matnlar tarkiblaridagi leksik va grammatik birliklar ma'no va shakllaridan kelib chiqib bevosita amalga oshirilmaydi, balki matnlar tarkiblarida yashirin holda mavjud bo'lib, butun boshli ifodalar asosida oydinlashadigan hosila mazmunlar asosida yaratiladi. Hosila mazmun ko'pincha

nazarda tutilgan yoki ko'chma mazmun deyiladi. Bunday hollarda bevosita mazmun chetda qoladi [1, 74 b].

Xulosa

Ingliz va o'zbek tillarida so'z tartibi farqlari tarjima sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ingliz tili qat'iy so'z tartibiga ega bo'lganligi sababli gap ma'nosi ko'pincha stukturaga bog'lanadi. O'zbek tili esa erkin tuzilishga ega bo'lib, mazmunni urg'u ohang va kontekst orqali ifodalaydi. Shuning uchun tarjima jarayonida so'zlarni mexanik tarzda ko'chirish emas, balki shakl va mazmunning o'zaro uyg'unligini ta'minlash, uslubiy av semantik ekvivalentlikka erishish asosiy vazifa hisoblanad. Bunday yondashuvgina tarjimaning tabiiyligi, aniq ma'nosi va kommunikativ samaradorligini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yo'ldoshev U.R. -Tarjima nazariyasi. O'qul qo'llan. -2021, SamDChTI nashriyoti. 74-75 betlar.
2. Makhsudova N.Z. International journal of scientific researchers. - 393 b.
3. Newmark, P. A Textbook of translation. – London: Prentice Hall, 1988.- pp. 54-74.
4. Rakhimov, B. O'zbek tilining aintaksisi. – Toshkent: Fan, 2012. 98-120 bet.
5. Bakirova, H. B. (2022). The content of teaching foreign languages. Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching, 2, 91-94.
6. Xudoyorov, A (2005). O'zbek tilining sintaksisi. Toshkent: Fan nashriyoti.